

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNI O'ZINI- O'ZI RIVOJLANTIRISHIDA METAREFLEKSIV TA'LIM MUHITINI YARATISH

Ismailova Nilufar Isroildjanovna
Namangan davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarning o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoniga yo'naltiruvchi metarefleksiv ta'lim muhitini yaratishning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Metarefleksiv yondashuv shaxsning o'z faoliyati, qarorlari va kasbiy rivojlanish bosqichlarini chuqur tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada talabalarning refleksiv tafakkurini rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli vositalar, refleksiv yozuvlar, portfoliolar va mentorlik mexanizmlarining ahamiyati ochib beriladi. Jumladan, metarefleksiv ta'lim muhitining tarkibiy komponentlari, uning pedagogik jarayondagi funktsiyalari hamda ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: metarefleksiya, metarefleksiv yondashuv, metarefleksiv ta'lim muhiti, bo'lajak tarbiyachi, kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish, refleksiv kompetensiya, mentorlik, individual rivojlanish, refleksiv faoliyat, oliy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik

СОЗДАНИЕ МЕТАРЕФЛЕКТИВНОЙ УЧЕБНОЙ СРЕДЫ В РАМКАХ САМООБОРОТА БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы создания метарефлексивной учебной среды, которая направляет будущих преподавателей в процессе саморазвития в высших учебных заведениях. Научно доказано, что метарефлексивный подход способствует формированию у человека способности к глубокому анализу собственной деятельности, решений и этапов профессионального развития. В статье раскрывается важность педагогических технологий, интерактивных методов, цифровых инструментов, рефлексивного письма, портфолио и механизмов наставничества, которые развивают рефлексивное мышление студентов. В частности, анализируются структурные компоненты метарефлексивной учебной среды, ее функции в педагогическом процессе и ее влияние на эффективность обучения.

Ключевые слова: метарефлексия, метарефлексивный подход, метарефлексивная учебная среда, будущий педагог, профессиональное саморазвитие, рефлексивная компетентность, наставничество, индивидуальное развитие, рефлексивная деятельность, высшее образование, профессиональная подготовка

CREATING A METAREFLECTIVE LEARNING ENVIRONMENT IN SELF-DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. *This article discusses the theoretical and methodological foundations of creating a metareflexive learning environment that guides future teachers in the process of self-development in higher education institutions. It is scientifically proven that the metareflexive approach serves to form a person's ability to deeply analyze their own activities, decisions, and stages of professional development. The article reveals the importance of pedagogical technologies, interactive methods, digital tools, reflective writing, portfolios, and mentoring mechanisms that develop students' reflective thinking. In particular, the structural components of the metareflexive learning environment, its functions in the pedagogical process, and its impact on educational effectiveness are analyzed.*

Keywords: *metareflection, metareflexive approach, metareflexive learning environment, future educator, professional self-development, reflective competence, mentoring, individual development, reflective activity, higher education, professional training*

KIRISH

Oliy ta'lim muassasasida zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash muammosi eng murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar toifasiga kiradi. Yosh avlodning ma'naviy-axloqiy shakllanishi, ularning mustaqil hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlanishi ko'p jihatdan ta'lim va tarbiya sifatiga bog'liq bo'ladi. Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat kasbiy faoliyatning o'zgarishiga, ishlab chiqarish va boshqaruvda yangi texnologiyalardan foydalanish esa kasbiy-malakaviy talablarning jiddiy ravishda o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Talab yuqori bo'lgan mutaxassis — bu mustaqil fikrlay oladigan, shakllangan refleksiya asosida kasbiy-axloqiy qadriyatlarga ega bo'lgan, nafaqat tushunchalar va faktlar, balki baholovchi ma'nolar bilan ham mustaqil ishlay oladigan shaxsdir.

Mehnat bozori mutaxassisdan ishbilarmonlikni, amaliyotga yo'naltirilganlikni, eng murakkab noodatiy vaziyatlarni yenga olish qobiliyatini talab qiladi, shu bilan birga, u axloqan yetuk inson bo'lishi lozim. Shuning uchun ta'lim muassasasining o'zida talabaning shaxsiy rivojlanishi va o'zini-o'zi rivojlantirishini ta'minlaydigan refleksiv ta'lim muhitini yaratish zarur.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli

mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida- "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" [1] ustivor vazifa sifatida belgilangan.

"Maktabgacha ta'lim sohasida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida: maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori o'rinbosari zimmasiga ta'lim sifatini ta'minlash, pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayonlariga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish vazifalari yuklanadi. barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat soati", tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa "Metodik mahorat kuni" kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etiladi;[2] Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish tarbiyachi- pedagog kadrlarning o'z-o'zini rivojlantirib borishi, kasbiy o'sishiga bog'liqdir.

Tadqiqotda metarefleksiya, refleksiv ta'lim, shaxsiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish, Oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvga doir normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Pedagogik modellashtirish asosida metarefleksiv ta'lim muhiti modeli ishlab chiqish, anketa, suhbat va kuzatuv orqali bo'lajak tarbiyachilarning o'zini-o'zi rivojlantirish darajalari baholandi. Pedagogik eksperiment: tajriba va nazorat guruhlarini faoliyati solishtirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'nggi yillarda pedagogikada "refleksiya" atamasi tobora ko'proq qo'llanilmoqda. U zamonaviy ta'lim maqsadlari, professionallik, kompetensiya, shaxsning asosiy xususiyatlari, ya'ni o'zini boshqarish, rivojlanish va o'zini-o'zi rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va sifatlarni anglashda ishlatiladi.

"Dunyoda inson shaxsidan murakkab va boyroq narsa yo'q", — deb yozgan V. A. Suxomlinskiy. Bugungi kunda jamiyatimiz oldida barcha sohalarda faol, ijodiy

faoliyatga qodir, o'zini anglaydigan, rivojlanish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan shaxsni tarbiyalashdek ulkan maqsad turibdi.

O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" [3] maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari quyidagi mahoratini takomillashtirishi shart deb ko'rsatilgan:

- bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi;

- pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, bolalarni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, ularni vatanparvarlik, mehnatga, qonuniy vakillariga hurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashi;

- maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini bajarishi;

- o'z malakasini oshirishi;

- o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart.

Refleksiya va metarefleksiya ta'lim muhiti ta'lim jarayonida talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohadagi adabiyotlar talabalarning reflektiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'zini baholash metodlarining samaradorligini ko'rsatadi. Dewey, J. (1933): How We Think asarida [4] refleksiya jarayonining ta'limdagi o'rni va ahamiyatini ta'kidlaydi. U, ta'lim jarayonida talabalarning o'z tajribalarini tahlil qilib, ulardan o'rganishi va yangi bilimlarni shakllantirishlari zarurligini belgilaydi. Deweyning fikricha, refleksiv fikrlash talabalarga yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Shunday qilib, refleksiya — bu ichki o'zini anglash va subyektiv kuzatuv orqali borliqni idrok etish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab, integrativ shaxsiy tuzilma hisoblanadi. Zamonaviy refleksiya fenomeni tasniflarini tahlil qilish asosida uni turli mezonlar bo'yicha umumlashtirilgan tuzilmasi quyidagicha [5]:

1. Tipologik yo'nalishiga ko'ra: – shaxsiy (o'zini bilish); – kommunikativ-kooperativ (shaxslararo muloqot va guruhdagi refleksiya); – intellektual (tafakkurni boshqarish);

2. Shakliga ko'ra: – individual; – kollektiv (dialogik);

3.Vaqt omiliga ko'ra: – retrospektiv (o'tgan tajribani qayta tiklash); – introspektiv (joriy faoliyatni tuzatish); – perspektiv (rejalashtirish);

4.Subyektning idrok yoki tafakkur yo'nalishiga ko'ra: – formal (vaziyatni yuzaki ko'rib chiqish), – mazmunli (ichki harakatlar tahlili).

Ushbu mezonlar bilan birga bo'lajak pedagoglarda refleksiya shakllanishini o'rganishda O.I. Kayasheva va E.I. Mishina tomonidan taklif qilingan refleksiya turlari tasnifi quyidagicha:[5]

Shaxsiy refleksiya – bo'lajak pedagoglarning o'zini bilish tajribasi va subyektiv kuzatuvlari asosida mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyati bilan tavsiflanadi;

Kommunikativ-kooperativ (ijtimoiy) refleksiya – bo'lajak pedagoglarning hayot faoliyatining kommunikativ jihatida bog'liq bo'lib, o'zining ijtimoiy pozitsiyasini hamda shaxslararo o'zaro ta'sirning turli jihatlarini tahlil qilish malakasi bilan xarakterlanadi;

Intellektual refleksiya – faoliyatning real sharoitlarda amalga oshirilishini tahlil qilishga qaratilgan predmetli o'z faoliyatini anglash jarayonidir.

Demak, refleksiyadan farqli metarefleksiya — bu insonning nafaqat o'z faoliyati yoki fikrlash jarayonini, balki o'z refleksiyasining o'zini tahlil qilishi, ya'ni “men qanday o'ylayapman?”, “mening fikrlashim va baholashim qanchalik asosli?” kabi savollarni ongli ravishda ko'rib chiqish jarayonidir. Bu refleksiyaning eng yuqori, murakkab shakllaridan biri hisoblanadi.

Metarefleksiyaning asosiy maqsadi — bu o'z fikrlashimiz va harakatlarimizni anglab yetish hamda ularni tanqidiy tahlil qilish orqali ularning samaradorligi va sifatini oshirishdir. U bizning muloqotimiz va xulq-atvorimizda yanada moslashuvchan va adaptiv bo'lishimizga yordam beradi, shuningdek yangi insaytlar va yangi nuqtai nazarlarni kashf etishimizga imkon yaratadi.

Metarefleksiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1.Shaxs o'zining fikrlash strategiyasini va ichki dialogini nazorat qiladi.

2.Inson o'z qarorlari qanday me'yorlar, qadriyatlar yoki tajribaga asoslanganini tahlil qiladi.

3.Shaxs o'zining fikrlashi va emotsional holati bir-biriga qanday ta'sir qilayotganini tushunadi.

4.Metarefleksiya yuqori darajadagi metakognitiv qobiliyatlarni faollashtiradi: rejalashtirish, monitoring, nazorat, tahlil qiladi.

Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak tarbiyachilarni o'zini-o'zi rivojlantirishida metarefleksiv ta'lim muhitini yaratish orqali quyidagi malaka va ko'nikmalar o'zlashtiriladi:

1.Shaxsiy va kasbiy rivojlanishni chuqurlashtiradi-Metarefleksiya talabaga o'zini tanqidiy baholash, xatolar sababini chuqur tushunish va o'z-o'zini takomillashtirish imkonini beradi, bu sifat bo'lajak pedagog uchun yuqori professional kompetentlik belgisi sifatida qaraladi. "Metarefleksiya kundaligi" har hafta bir varaq kundalik yuriting: haftadagi eng katta yutug'im, muvaffaqiyatsizligim va sababi, o'rgangan 3 ta muhim narsam, kelasi hafta maqsadlarim bu kundalikni yuritish vaqtini to'g'ri taqsimlash, o'z-o'zini baxolash uchun xizmat qiladi.

2. Metakognitiv nazariyalarni boyitadi- Kognitiv psixologiyada metarefleksiya metakognitsiyaning eng yuqori darajasi sifatida qaralib, inson tafakkurini o'rganish bo'yicha asosiy kategoriyalardan biridir. "Bugungi darsni tahlil qilaman" Darsdan so'ng quyidagi savollarga yozma javob bering: Bugun nimani o'rgandim? Men uchun eng qiyin bo'lgan joy qaysi bo'ldi? Qaysi usul men uchun samarali bo'ldi? Keyingi darsda o'zimni yaxshilash uchun nima qilaman?

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi- Metarefleksiya orqali talaba stereotip fikrlashdan chiqadi, ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qiladi, mustaqil fikr yuritadi. Bu kelajakda kasbiy rivojlanish uchun muhim bo'lgan tafakkur jarayonlarini optimallashtiradi. "Kuchli va zaif tomonlar xaritasi" Vazifa: Ikki ustunli jadval tuzing. Chap tomon: Kuchli tomonlarim, O'ng tomon: Rivojlantirish kerak bo'lgan tomonlarim. Har bir bandga real misollar yozing. Masalan:

- *Kuchli tomon:* mavzuni tez tushunaman; oson anglab yetaman, diqqat bilan tinglayman, eshitgan ma'lumotni sinchiklab taxlil qilaman...

- *Zaif tomon:* vaqtini to'g'ri taqsimlay olmayman, diqqatim tarqoq, tez esdan chiqaraman... Demak sizni rivojlanishingizga to'siq bu zaif tomonlaringiz, shunday maqsad qilingki zaif tomoningiz ustida ishlang va tugallang.

4. Pedagogik faoliyatda metodik yangilik yaratadi - ta'lim jarayonidagi qarorlarni ongli va asosli qabul qilish, o'z metodikasini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Men o'z kuchli tomonlarimni qanday aniqlashim mumkin?-Muvaffaqiyatli bajargan topshiriqlaringizni eslang, o'zingizni eng ishonchli his qilgan vaziyatlarni tahlil qiling. O'qituvchi yoki guruhdoshlarning fikrlarini ham hisobga oling — bu kuchli tomonlaringizni aniqroq ko'rsatadi.

6. Shaxsning kognitiv murakkabligini oshiradi- metarefleksiya yuqori darajadagi intellektual rivojlanishning belgisi bo'lib, insonning murakkab ijtimoiy vaziyatlarda ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Metarefleksiya menga qanday yordam beradi? - U sizga o'qish jarayonida qanday strategiyalar samarali bo'lgani, qaysi joylarda qiyinchilikka duch kelganingiz va nima uchun shunday bo'lganini tushunishga yordam beradi. Natijada o'qish uslublaringizni yaxshilaysiz.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, refleksiya, metarefleksiya metodlari talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishidagi ahamiyatini isbotlaydi va bu jarayonlarning ta'lim tizimida qanday qo'llanilishi kerakligini ko'rsatadi. Metarefleksiya va o'zini-o'zi rivojlantirish talabalarning shaxsiy va akademik muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam berishi mumkin, shuningdek, ularning o'rganish jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari va muhokama.

Ushbu tadqiqotning maqsadi talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida refleksiya hamda metarefleksiya metodlarining ahamiyatini o'rganishdir. Tadqiqot jarayonida talabalarning o'z-o'zini metarefleksiya jarayonlaridagi tajribalarini o'rganish uchun so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi. Talabalarning fikr-mulohazalari va natijalari tahlil qilindi ularning 85% dan ortig'i metarefleksiya jarayonining o'z-o'zini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidladi. Ular o'z tajribalarini tahlil qilish orqali o'z bilimlarini va ko'nikmalarini yaxshilash

imkoniyatini topadilar. So'rovda ishtirok etgan talabalarning 78% o'zini baholash metodlarining o'z faoliyatlarini yanada samarali qilishga yordam berishini bildirdi.

O'qituvchilar talabalarga metarefleksiya va o'zini –o'zirivojlantirish jarayonlarini amalda qo'llashda yordam berishlari muhim ahamiyatga ega. Talabalarning 70% i o'qituvchilarning bu jarayonlarni qo'llab-quvvatlashlari natijasida o'z o'rganishlariga ko'proq e'tibor qaratganliklarini bildirdi. Olingan natijalar metarefleksiyani ta'lim jarayonida talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishdagi ahamiyatini kuchli ekanligini ko'rsatadi. Metarefleksiya jarayoni talabalarga o'z tajribalarini tahlil qilib, o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Zaif tomonlar bilan qanday ishlash kerak? - Avvalo, ularni tan oling. Keyin esa nima sababdan qiyinchilik yuzaga kelganini aniqlang: bilimsizlikmi, vaqtni to'g'ri boshqara olmaslikmi yoki motivatsiyaning pastligimi? Sabab aniq bo'lsa, uni bartaraf etish osonroq bo'ladi. Metarefleksiya qilish uchun alohida vaqt ajratish shartmi? Albatta. 5–7 daqiqa bo'lsa ham yetadi. Muhimi — izchil ravishda o'zini tahlil qilish odatini shakllantirishdir. Bu jarayon o'z-o'zini anglash va o'rganish uchun zarurdir. Bundan tashqari, o'zini baholash metodlari talabalarga o'z faoliyatlarini yanada samarali qilishda yordam beradi. Talabalar o'z muvaffaqiyatlarini tahlil qilish orqali o'zlarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. Olingan natijalar, o'qituvchilarning talabalarni qo'llab quvvatlashlari natijasida o'z o'rganishlariga ko'proq e'tibor qaratishlarini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari, bu metodlarni ta'lim jarayonida kengaytirish va yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA

Metarefleksiya — bu refleksiya ustidan refleksiya, ya'ni shaxsning o'z tafakkurini boshqarish va tahlil qilish qobiliyati. Uning ilmiy qiymati kognitiv jarayonlarni chuqur anglash, shaxsiy va kasbiy o'sishni ta'minlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda ta'lim va ilmiy-amaliy faoliyatda yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatlari bilan belgilanadi. O'quv dasturlarida metarefleksiya va o'zini baholash metodlarini kengaytirish va ulardan foydalanish uchun maxsus modullar ishlab chiqish zarur. Bu bo'lajak tarbiyachilarni o'z tajribalarini tahlil qilish va o'z-o'zini baholashga undaydi. O'qituvchilarni refleksiya

va o'zini baholash metodlaridan foydalanishga o'rgatish uchun seminarlar va treninglar tashkil etish. Bu o'qituvchilarning o'z faoliyatlarini tahlil qilish va talabalarni qo'llab-quvvatlash qobiliyatini oshiradi, nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan bog'lash imkoniyatini beradi. Buning uchun amaliyot jarayonlarida metarefleksiya va o'zini baholash metodlarini qo'llash orqali talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishiga ko'mak berish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ilova
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.09.2024 й. ПФ-152-сон "Мақтабгача таълим сифати ва самарадорлигини янада ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармони
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son
4. Базаева Ф.У. Инновационная образовательная среда как фактор самореализации личности // Вестник ГГНТУ. Гуманитарные и социально-экономические науки. 2022. Т. 18. №1 (27). С. 46-51.
5. Каяшева О.И. Онтогенетические аспекты развития рефлексии человека: теоретический анализ проблемы / О.И. Каяшева // Вестник Московского государственного областного университета. Психологические науки. 2020. №4. С. 40-50.
6. Schön, D. (1983). The Reflective Practitioner.
7. Flavell, J. (1979). Metacognition and Cognitive Monitoring.
8. Efklides, A. (2008). Metacognition and Affect: Their Interplay.